

1945-1991 YILLARDA TOSHKENT SHAHRINING IJTIMOIY HAYOTI

Xursanov Mahmudjon

Aniq va Ijtimoiy Fanlar universiteti 1-kurs magistranti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1465775>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Toshkent shahrining 1945-1991 yillar oralig‘idagi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi tahlil qilinadi. Urushdan keyingi tiklanish jarayonlari, shahar sanoati va urbanizatsiyasining jadallahishi, aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan siyosatning ijobjiy va salbiy jihatlari yoritiladi. Shuningdek, maqolada 1966-yilgi zilzila va uning oqibatlarini bartaraf etish jarayonlari, Toshkent metropoliteni qurilishi hamda transport va infratuzilmaning rivojlanishi kabi mavzular keng ko‘lamda yoritilgan. Shahar ta’limi, sog‘liqni saqlash tizimi va madaniy hayotdagi yutuqlar bilan bir qatorda mavjud muammolar ham tahlil qilingan. Ushbu davr Toshkentni nafaqat mahalliy, balki Markaziy Osiyoning muhim strategik markazi sifatida shakllanishida alohida ahamiyat kasb etganligi bilan xarakterlanadi.

Kalit so‘zlar. Ikkinci Juhon urushi, ijtimoiy rivojlanish, iqtisodiy rivojlanish, urbanizatsiya, 1966-yilgi Toshkent zilzilasi, sanoat korxonalar, mashinasozlik, Toshkent metropoliteni, yo‘llar va transport rivoji, sog‘liqni saqlash tizimi, ta’lim tizimi, Uy-joy ta’minoti, kommunizm, oziq-ovqat taqchilligi, ishchi kuchi, madaniyat, sport, qog‘ozbozlik, kasb-hunar o‘rganish markazlari, arxitektura, shaharsozlik, communal xizmatlar, shifoxonalar, poliklinikalar, pedagogik islohotlar, malaka oshirish.

THE SOCIAL LIFE OF TASHKENT CITY IN 1945-1991

Abstract. This article analyzes the economic and social development of Tashkent city during the period from 1945 to 1991. It covers the post-war recovery processes, the acceleration of urbanization and industrialization, and the positive and negative aspects of the policies aimed at improving the living standards of the population. The article also extensively discusses the 1966 earthquake and the efforts to eliminate its consequences, the construction of the Tashkent Metro, as well as the development of transport and infrastructure. In addition to the achievements in education, healthcare, and cultural life, the article analyzes the existing problems. This period is characterized by the importance of Tashkent’s development not only as a local but also as a key strategic center in Central Asia.

Keywords: World War II, social development, economic development, urbanization, 1966 Tashkent earthquake, industrial enterprises, machine engineering, Tashkent Metro, roads and transport development, healthcare system, education system, housing provision, communism, food

shortages, labor force, culture, sports, bureaucracy, vocational training centers, architecture, urban planning, public services, hospitals, polyclinics, pedagogical reforms, professional development.

СОЦИАЛЬНАЯ ЖИЗНЬ ГОРОДА ТАШКЕНТА В 1945-1991 ГОДАХ

Аннотация. В данной статье анализируется экономическое и социальное развитие города Ташкента в период с 1945 по 1991 год. Рассматриваются процессы послевоенного восстановления, ускорение урбанизации и индустриализации, а также положительные и отрицательные стороны политики, направленной на улучшение уровня жизни населения. В статье также широко освещаются последствия землетрясения 1966 года и меры по их устранению, строительство Ташкентского метрополитена, а также развитие транспорта и инфраструктуры. Помимо достижений в области образования, здравоохранения и культурной жизни, рассматриваются существующие проблемы. Этот период характеризуется важностью формирования Ташкента не только как местного, но и как ключевого стратегического центра Центральной Азии.

Ключевые слова: Вторая мировая война, социальное развитие, экономическое развитие, урбанизация, землетрясение в Ташкенте 1966 года, промышленные предприятия, машиностроение, Ташкентский метрополитен, развитие дорог и транспорта, система здравоохранения, система образования, обеспечение жильем, коммунизм, дефицит продуктов питания, рабочая сила, культура, спорт, бюрократия, центры профессионального обучения, архитектура, градостроительство, коммунальные услуги, больницы, поликлиники, педагогические реформы, повышение квалификации.

Kirish

1945-yildan keyingi davr Toshkent shahrining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berdi. Urushdan keyingi tiklanish jarayonlari, shahar infratuzilmasi va sanoatining rivoji, aholining turmush sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar Toshkentni mintaqadagi muhim markazga aylantirdi. Shu bilan birga, ijtimoiy hayotda uchragan qiyinchiliklar va tabiiy ofatlar, jumladan 1966-yilgi zilzila, shaharning rivojlanish sur'atlariga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ushbu davrda Toshkentning urbanizatsiyasi, sanoat salohiyati, ijtimoiy infratuzilmasi hamda ta'lif va sog'liqni saqlash tizimidagi o'zgarishlar keng ko'lamda amalga oshirildi. Mazkur tadqiqot ushbu jarayonlarning turli jihatlarini tahlil qilish va ularning shahar hayotiga ko'rsatgan ta'sirini yoritishga bag'ishlanadi.

Asosiy qism

1945-yildan boshlab Toshkent shahrining iqtisodiy va ijtimoiy hayotida sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Ikkinchi Juhon urushi davrida O‘zbekiston iqtisodiyoti urush sharoitlariga moslashtirilib, sanoat va iqtisodiyot harbiy izga solingan edi. Shu yillarda Toshkent shahriga Ittifoqning G‘arbiy va Markaziy hududlaridan 104 ta fabrika va zavod ko‘chirildi.

Masalan, Leningrad to‘qimachilik mashinalari zavodi, “Rosselmash”, “Qizil Oqsoy” va “Elektrokabel” kabi yirik korxonalar Toshkentda faoliyatini davom ettirdi. Shuningdek, 280 ta yangi sanoat korxonasi ishga tushirilib, mashinasozlik sanoati rivojlanтирildи.

Ijtimoiy rivojlanish

1945-1991 yillar davomida Toshkent shahrining ijtimoiy hayoti o‘ziga xos jarayonlarni boshdan kechirdi. Urushdan keyingi davrda aholining turmush darajasini yaxshilash va shaharning urbanizatsiyasini jadallashtirishga katta e’tibor qaratildi. Shu yillarda shahar aholisi soni sezilarli darajada oshdi, yangi mahallalar, ko‘p qavatli uylar va madaniy ob’ektlar qurildi. Shahar hayotini ijtimoiy ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar doirasida yangi maktablar, tibbiyot muassasalari, bolalar bog‘chalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ammo iqtisodiy cheklarlar va kommunistik boshqaruvning mafkuraviy ta’siri ijtimoiy hayotda qator muammolarni keltirib chiqardi.

Jumladan, oziq-ovqat va kundalik ehtiyoj mahsulotlarining taqchilligi, ayrim sohalarda ishchi kuchining yetishmasligi aholining kundalik hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Aholining ijtimoiy holati

1945-1991 yillarda Toshkent aholisining ijtimoiy holati ko‘plab o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Urushdan keyingi yillarda oziq-ovqat mahsulotlarining yetishmovchiligi va taqsimot tizimi mavjud bo‘lsa-da, davlat tomonidan uy-joy ta’moti va infratuzilmani yaxshilashga katta e’tibor qaratildi. 1960-yillardan boshlab yangi uy-joy massivlari qurilishi aholi uchun yashash sharoitlarini yaxshilashga yordam berdi. Madaniyat va sport sohasidagi rivojlanish ham ijtimoiy hayotda muhim o‘rin tutdi. Yangi kinoteatrlar, sport majmualari, madaniyat uylari va kutubxonalar ochilib, aholi uchun dam olish imkoniyatlari kengaytirildi. Shuningdek, ayollar va yoshlar uchun ijtimoiy dasturlar, jumladan kasb-hunar o‘rganish markazlari tashkil etildi.

Ijtimoiy kamchiliklar

Ijtimoiy rivojlanishga qaramay, ushbu davrda Toshkent aholisi bir qator muammolarga duch keldi. Kommunistik boshqaruv tizimi oziq-ovqat va kundalik mahsulotlar taqsimotiga to‘liq nazoratni qo‘llagan bo‘lsa-da, ko‘plab hududlarda taqchillik muammoi saqlanib qoldi.

Bozorlarda mahsulot yetishmovchiligi kuzatilgan va aholi uzoq navbatlarda turishga majbur edi.

Uy-joy ta'minoti bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishilganiga qaramay, ba'zi chekka mahallalarda infratuzilmaning sust rivojlanishi va kommunal xizmatlarning sifati pastligi aholining turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bundan tashqari, sog'liqni saqlash tizimidagi ba'zi muassasalarning moddiy-texnik bazasi yetarli darajada rivojlanmagan edi. Ish bilan ta'minlanish sohasida ham ayrim muammolar mavjud bo'ldi. Aholi bandligini oshirish uchun ko'plab dasturlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, malakali ish o'rnlari yetishmasligi va qo'l mehnatiga qaramlik saqlanib qoldi. Shuningdek, ta'lim tizimida qog'ozbozlik va ma'lum sohalarda innovatsion yondashuvlarning yetishmasligi sezildi.

1966-Yilgi Toshkent zilzilasi

1966-yil 26-aprel kuni Toshkent shahrida kuchli zilzila yuz berdi. Magnitudasi 5,2 ball bo'lgan ushbu tabiiy ofat shahar hayotiga katta talafot yetkazdi. Zilzila natijasida 36 mingdan ortiq binolar vayron bo'ldi, 300 mingga yaqin kishi uy-joysiz qoldi. Shahar markazi va ko'plab tarixiy obidalar katta zarar ko'rdi. Biroq, zilzila Toshkentning urbanistik va ijtimoiy rivojlanishida yangi davrni boshlab berdi. Ittifoqning barcha hududlaridan yordam kuchlari jalb qilindi. Zilzila oqibatlarini bartaraf etish maqsadida qisqa vaqt ichida shaharda keng ko'lamli qurilish ishlari amalga oshirildi. Yangi uy-joy massivlari, zamonaviy arxitektura uslubida barpo etilgan inshootlar paydo bo'ldi. Shuningdek, xalqaro hamjamiyatdan yordam va e'tibor ham jalb qilindi. Toshkent shaharsozlik va arxitektura sohasida zamonaviy shahar qiyofasiga ega bo'ldi.

Toshkent Metropoliteni Qurilishi

Toshkent metropoliteni qurilishi 1968-yilda boshlangan bo'lib, bu SSSR hududidagi birinchi metropolitenlardan biri sifatida ahamiyat kasb etadi. Metroning birinchi liniyasi 1977-yil 6-noyabrda ishga tushirilgan. Toshkent metropoliteni shahar transport tizimining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi va Toshkentning urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirdi. Metro stansiyalari o'zining arxitektura jihatidan noyobligi va san'at asarlari bilan ajralib turardi. Metropolitenning qurilishi aholi uchun transport qulayliklarini ta'minladi, shahar markazi va uning chekka hududlari o'rtasidagi aloqalarni yaxshiladi. Toshkent metropoliteni nafaqat transport vositasi, balki shaharning madaniy va me'moriy qiyofasining bir qismi sifatida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Yo'llar va Transport Rivoji

Zilziladan so'ng Toshkentda yo'l va transport infratuzilmasini rivojlantirish ustuvor vazifaga aylandi. Shahar ichida zamonaviy keng ko'chalar va yo'l tarmoqlari barpo etildi.

Ayniqsa, yangi transport yo‘laklari, ko‘priklar va chorrahalarining qurilishi shahar aholisi uchun katta qulaylik yaratdi. 1980-yillarga kelib Toshkentning transport tarmog‘i nafaqat shahar ichida, balki uning atrofidagi hududlar bilan bog‘lanishni sezilarli darajada yaxshiladi.

Sog‘liqni Saqlash Tizimi Rivoji

Toshkentda sog‘liqni saqlash tizimi 1945-1991 yillar davomida katta rivojlanishga erishdi. 1950-yillarda yangi kasalxonalar, poliklinikalar va diagnostika markazlari qurildi. Shahar aholisi uchun sanitariya-gigiyena sharoitlarini yaxshilashga katta e’tibor qaratildi. 1960-1970 yillarda Toshkentda birinchi shifoxona majmualari, maxsus laboratoriylar va sog‘lomlashtirish markazlari ishga tushirildi. Sog‘liqni saqlash bo‘yicha qabul qilingan qarorlar orasida shahar aholisining salomatligini yaxshilashga qaratilgan davlat dasturlari alohida o‘rin egalladi. Shu jumladan, bolalar va onalar sog‘lig‘ini yaxshilash, yuqumli kasalliklarning oldini olish va tibbiy xizmat ko‘rsatish sifati oshirildi. Biroq, ba’zi muassasalarining texnik ta’minoti yetarli emasligi va shifokorlarning malaka oshirish imkoniyatlarining cheklanganligi tizimning rivojlanishiga to‘siq bo‘lib xizmat qildi.

Toshkent shahrida ta’lim tizimi sezilarli yutuqlarga erishdi. Urushdan keyingi davrda yangi maktablar va texnikumlar ochilib, aholining ta’limga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan ishlar olib borildi. Toshkent davlat universiteti, Politexnika instituti va boshqa yirik o‘quv yurtlari mintaqada bilim va innovatsiyalar markaziga aylandi. 1980-yillarda shahar maktablarida yangi o‘quv dasturlari joriy qilindi, ixtisoslashgan maktablar va texnik bilim yurtlari soni ko‘paytirildi. Ta’lim sohasida ko‘plab pedagogik islohotlar amalga oshirilib, bu shahar aholisining madaniy va intellektual rivojlanishiga xizmat qildi. Ammo ta’lim tizimida ba’zi muammolar saqlanib qoldi. Xususan, qog‘ozbozlikning yuqori darjasasi, ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarning yetishmasligi va o‘quvchilarning amaliy bilimlarini oshirish imkoniyatlarining cheklangani muhim muammolar edi.

Xulosa

1945-1991 yillar Toshkent shahrining ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida muhim davr bo‘ldi. Zavod va fabrikalarning faoliyati shaharning urbanizatsiyasi va aholi turmush darajasini yaxshilashda katta rol o‘ynadi. 1966-yilgi zilzila shaharga katta zarar yetkazgan bo‘lsa-da, uning oqibatlarini bartaraf etish Toshkentni zamonaviy shahar sifatida rivojlantirishga xizmat qildi. Shuningdek, metropolitenning qurilishi Toshkentni nafaqat SSSR, balki butun dunyo miqyosida zamonaviy shahar qiyofasida tanitishga xizmat qildi.

Yo'llar, transport, sog'liqni saqlash va ta'lim sohasidagi islohotlar shaharning aholi uchun qulay va xavfsiz muhit yaratishida muhim ahamiyat kasb etdi. Biroq, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidagi texnik va moddiy-texnik kamchiliklar, mahsulot taqchilligi kabi ijtimoiy muammolar mavjud edi. Toshkent, nafaqat mahalliy, balki Markaziy Osiyo va SSSR miqyosida strategik ahamiyat kasb etuvchi shaharga aylandi.

REFERENCES

1. Kochnev B.D. Istoriya Sredney Azii. - Moskva: Nauka, 1974.
2. Dimitriev, V. (1980). Urbanskaya politika v Tashkente v 1945-1991 gg. Moskva: Nauka.
3. Boltaeva Sh. Boshqaruvchi ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish. // Pedagogika nazariyasi va tarixining ayrim dolzarb muammolari. Ilmiy ishlar to'plami. – Toshkent: Fan, 2006.
4. Xolmatova Z. Toshkent shahrining urbanizatsiya jarayonlari va uning ijtimoiy ahamiyati. // Sotsial-iqtisodiy rivojlanish va urbanizatsiya: Ilmiy ishlar to'plami. – Toshkent: Akademiya, 2010.
5. Shuhratov T. Iqtisodiy o'sish va sanoat inshootlarining ahamiyati. // Iqtisodiyot va sanoat tadqiqotlari. Jurnali, 2012. – Т. 12, No.
6. Ҳайдаров И. Иккинчи жаҳон урушидан кейинги йилларда Ўзбекистон саноатини ривожлантиришдаги муаммолар хусусида // Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари Республика XII илмий-амалий конференция материаллари. 24 апрель 2020-йил. Тошкент-2020.
7. Пардаев.Т.Р Ўзбекистоннинг жанубий худудларида ижтимоий иқтисодий ва маданий ҳаёт (1945-1991 й.). тарих фанлари доктори (dsc) диссертацияси. Термиз -2021